www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Ogahiy asarlari o‘rganilish tarixi

Otaboyeva Mumtozxon
Prezident maktablari agentligi tasarrufidagi
Ogahiy ijod maktabining 9 sinf o‘quvchisi
Telefon:+998 94 114 84 17

Annatotsiya: Xorazm necha asrlardan buyon o‘zining ilm-fani, madaniyati, san’ati, me’moriy yodgorliklari va buyuk allomalari bilan jahon madaniyatini bebaho xazinalar bilan boyitgan va tarix sahifalarida salmoqli o‘rin egallagan ko‘hna zamindir. Yuksak madaniyat o‘chog‘I bo‘lgan bu o‘lkada,ayniqsa, XIX asrga kelib, madaniy hayot qayta jonlana boshlagan. Xonlikning poytaxti bo‘lgan Xiva madaniy-adabiy muhit markazi bo‘lgan. Bu esa fan va madaniyatning rivojiga zamin yaratgan. Adabiyot ham ravnaq topa boshladi,natijada o‘zbek mumtoz adabiyotining an’analari bilan bog‘liq nodir asarlar yaratildi. Iste’dodli shoir salohiyatli muarrix, mohir tarjimon Muammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy ana shunday adabiy muhitning yirik vakillaridan biri edi. O‘zbek xalqining buyuk farzandlari qatoridan o‘rin olgan Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy o’zining jahonshumul badiiy asarlari va qomusiy ahamiyatga molik ilmiy merosi bilan o‘zbek adabiyoti madaniyati va fani xazinasidan munosib o‘rin egallagan ulug‘ siymodir. Ogahiy hayoti o‘ta qiyin va murakkab bo‘lgan. Shunga qaramasdan Ogahiydan bizga boy ilmiy va adabiy meros qolgan, olimlarning aniqlashicha, 26 asardan iborat bo‘lgan bu merosdan hozirgacha kitob xazinalarida uning 22 ta asari bo‘yicha 72 ta qo‘lyozmalari mavjud.

XIX asrda Xiva xonligida yashab ijod etgan tarixchi, shoir va tarjimon bo‘lgan Ogahiy (1809-1874)ning hayoti, ijodini o‘rganish o‘tgan asrning 60-yillarida boshlangan edi. Ayniqsa, XIX asr Xorazm tarixiga oid qo‘lyozma kitoblardan Ogahiy hayotiga doir ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Munis Xorazmiyning “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asarida, Ahmad Tabibiyning “Majmuat-ush shuaro” kitobida, Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” tarixiy asarida, “Laffasiy” tahallusi bilan ijod qilgan Hasan Murod Muhammad Amin o‘g‘lining 1944-yilda yozgan “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari” asarida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Xiva xonligida Ogahiy devoni ikki marta 1882-yil va 1905-yillarda litografiya yo‘li bilan bosilib chop etilishi orqali merosini xalqqa yetkazish borasida muhim ishlar qilingandi. Ammo bu ishlar ancha vaqt davomida to‘xtab qoladi. Ogahiyning tug‘ilganiga 150 yil to‘lishi munosabati bilan o‘tkazilgan yubiley oldidan (1958-yilda) nashr etilgan uning “Tanlangan asarlar” va 1960-yilda nashr etilgan devoni o‘tgan asrda qilingan dastlabki ishlar edi. Bulardan tashqari to‘rt tomlik “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasida, besh tomlik “O‘zbek she’riyati antologiyasi”da Ogahiy asarlaridan namunalar e’lon qilingan.O’zbek xalqining buyuk farzandlari qatoridan o’rin olgan Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy o‘zining jahonshumul badiiy asarlari va qomusiy ahamiyatga moli ilmiy merosi bilan o‘zbek adabiyoti madaniyati va fani xazinasidan munosib o‘rin egallagan ulug‘ siymodir. Ogahiy hayoti o‘ta qiyin va murakkab bo’lgan. Shunga qaramasdan Ogahiydan bizga boy ilmiy va adabiy meros qolgan,olimlarning aniqlashicha, 26 asardan iborat bo’lgan bu merosdan hozirgachga kitob xazinalarida uning 22 ta asari bo’yicha 72 ta qo’lyozmalari mavjud.Shulardan Abu Rayhon Beruniy nomoidagi Sharqshunoslik instituti fondida 16 asarining 35 nusxadagi qo’lyozma nusxalari, sobiq Hamid Sulaymonov nomidagi Qo’lyozmalar instituti xazinasida 6 asarining 11 nusxasi, S.Shedrin nomli Davlat xalq kutubxonasida fondida esa 7 asari, Tojikiston

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Fanlar akademiyasi qo'lyozmalar fondida shoirning "Ta'viz ul-oshiqin" devonining 1 nusxasi saqlanib kelmoqda.

Ogahiyning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish sohasida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab, vaqtli matbuotdagi maqolalardan tashqari O'zbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi V. I. Zohidovning "Ogahiy" sarlavhali maqolasi, tarix fanlari kandidati Q. Munirovning "Ogahiy. Ilmiy va adabiy faoliyati" nomli risolasi, shuningdek, Subutoy Dolimov va Rahmat Majidiylarning himoya qilgan kandidatlik dissertasiyalarini tilga olish mumkin.

Ogahiy ijodini o'rganish ayniqsa mustaqillik yillarida yanada jadallashdi. Jumladan, bu davrda Yu. Bregel, N. Toshev, H. Nazirova tadqiqot ishlarida Ogahiy hayoti atroflicha to'xtalgan. Yu. Bregel tadiqotida Ogahiy hayoti va ijodi haqida ko'plab muhim ma'lumotlar to'plagan. N. Toshev Ogahiy tarjimai holini yangi axborotlar bilan to'ldirib, u saroyda egallagan mirob mansabi tahliliga alohida to'xtaladi. H. Nazirova Ogahiyning tarjimai holi, Munis bilan qarindoshlik rishtalari, miroblik mansabi, ijodiy merosiga oid so'nggi tadqiqotlar natijalarini berishga harakat qilgan. Ogahiyning ajdodlari shajarasini tadqiqotchi X. Nazirova ham tadqiqot ishida qayd etadi. Tadqiqotlarda Ogahiyning tarjima qilgan asarlari soni turlicha berilgan. 1971-yilda nashrdan chiqqan Ogahiy asarlarining birinchi jildi kirish qisimida tarjima asarlari 20 ta bo'lgan deb berilgan. Lekin tarjima asarlardan faqat 12 tasi qayd etiladi. Quvomiddin Munirov 1959-yilda chop ettirgan "Ogahiy. Ilmiy va adabiy faoliyati" asarida, 2002-yilda chop etilgan Xorazmda tarixnavislik (XVII-XIX va XX asr boshlari) kitobida ham Ogahiyning tarjima qilgan asarlari soni to'g'risida ma'lumot keltirmaydi. Faqat tarjima qilgan asarlari nomlari va ularning tarkibi haqida batafsil to'xtalib o'tadi.

Yu. Bregel, N. Toshev, H. Nazirovalar ham Ogahiy tarjima qilgan asarlarni aniq sonini ko'rsatishga harakat qiladilar. X. Nazirova "Xonlar alqagan muarrix" risolasida Ogahiy tarjima asarlarini 19 tasini nomlarini va ularning qayerda saqlanishini keltirib o'tadi. "Ta'viz ul-oshiqin"ga yozgan debochasidagi asarlarni qo'l bilan sanasak ham 19 ta asarni Ogahiy birma bir nomini qayd etganligini guvohi bo'lamiz. "Guliston". Sa'diy Sheroziyning (1184-1292) bu nodir asari o'zbek tiliga bir necha bor tarjima qilingan. Uning birinchi tarjimasi XIV asr o'zbek adabiyotining namoyandasi Sayfi Saroyi tomonidan 1390-1391-yillarda amalga ohirilgan.Ogahiyning bu tarjimasi 2019-yilda Ogahiy asarlari to'plamida A.O'rozboyev tomonidan tabdil qilindi. "Hafti paykar Nizomiy". Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning (1141-1203) bu mashhur asarini Ogahiy nasrda tarjima qilgan. Bu asar tarjimasi ham bevosita Muhammad Rahimxon soniy topshiriqi bilan amalga oshirilgan. Tarjima sanasi berilmagan. Tarjimaning 1917-18-yillarda Mulla Qurbon Niyoz ismli kotib tomonidan Xorazmda ko'chirilgan bir nusxasi O'zbekiston F.A. Sharqshunoslik instituti fondida saqlani kelinmoqda. "Yusuf va Zulayho". Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) bu asarini Ogahiy 1868-1869-yillarda she'riy yo'lda tarjima qiladi. X. Nazirova tadqiqotida bu tarjima asarning 7 ta nusxasi borligini qayd etgan. Bu tarjima qilingan asar ham Feruz buyrug'i bilan amalga oshirilgan. "Shoh va Gado". Alisher Navoiyning zamondoshi Bahriddin Hiloliyning (1470-1529) bu asarini Ogahiy she'riy yo'lda 1868-69-yillarda tarjima qiladi. Asar Xiva xoni Muhammad Rahimxon II buyrug' II bilan tarjima qilingan. F.G'anixo'jaev o'z tadqiqotida asarni 1865-yilda tarjima qilingan deb beradi. Tarjimaning 1903-yilda kotib Xudoybergan devon ibn ustod Muhammad Panoh Xorazmiy tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi O'zbekiston F.A. Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi.Bu sohad qilingan mavjud tadqiqotlarning aksariyatida ma'lum bir yo'nalishga e'tibor qaratilgan bo'lib, ularda Ogahiyning tarixiy, tarjima asarlari, g'azallari batafsil o'rganilgan, lekin kichik janrdagi ruboiy, qit'a, chiston, muammo kabi o'rganish vazifasi qo'yilmay qolgan edi. Ogahiy asarlarining shunday kichik janrlariga Ogahiyshunos olima M.Matyoqubova qo'l urgan holda "Ajab ohangu navolar" nomli kichik tadqiqot kitobi chop etilgan.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ro‘ziboyev Anvarbek. Ogahiyning asarlari –Xiva xonligi tarixini o’rganishda muhim manba.Toshkent-2023.
2.Madina Matyoqubova.”Ajab ohangu navolar”Ogahiy nashriyoti.Urganch-2023.
3.Abdulla O‘rozboyev.Ogahiyning tarixiy asarlar leksikasi.Toshkent-2023.
4.Ogahiy asarlari. V jild.-Toshkent-1978.
5.Ogahiy asarlari. VI jild.-Toshkent-1980.
6.Tursunov.U, Muxtorov.J, Raxmatullayeva Sh, Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Toshkent-1992
7. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari.-T: Fan,1960.